



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari

Boborahimova Farzona

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email- farzonaboborahimova08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, yalpi ichki mahsulot o'sishi, inflyatsiya darajasi va bandlik ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi mamlakat iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash va iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi asosida baholash usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani nazorat qilish, fiskal siyosatni samarali yuritish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, bandlik, YaIM, monetar siyosat, fiskal siyosat, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy barqarorlik mexanizmlari, makroiqtisodiy indikatorlar.

Kirish. So'nggi yillarda global iqtisodiy beqarorlik va tashqi iqtisodiy omillarning kuchayishi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun dolzarb masalalardan biriga aylandi. Makroiqtisodiy barqarorlik iqtisodiy o'sishning izchil davom etishi, inflyatsiya darajasining nazorat ostida bo'lishi, bandlikning yuqori darajada saqlanishi hamda davlat moliyaviy tizimining barqaror faoliyati orqali namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya bosimi, tashqi savdoda nomutanosiblik va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarga yuqori darajada bog'liqligi kabi omillar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul-kredit va fiskal siyosatning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, inflyatsiya darajasini nazorat qilish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish asosiy indikatorlar hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi asosida iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi. Makroiqtisodiy barqarorlik masalasi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy o'sishning





barqarorligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni va ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi. Xususan, John Maynard Keynes tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki zarurligi asoslab berilgan. Uning fikriga ko'ra, iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat xarajatlarini oshirish orqali yalpi talabni rag'batlantirish mumkin bo'lib, bu iqtisodiy faollikni tiklash va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy makroiqtisodiy yondashuvlarda esa iqtisodiy barqarorlik ko'proq kompleks ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Jumladan, N. Gregory Mankiw o'z tadqiqotlarida inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi hamda yalpi ichki mahsulot o'sishini makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy indikatorlari sifatida ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, pul-kredit siyosatining to'g'ri yuritilishi inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, Paul Samuelson va William Nordhau tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda fiskal va monetar siyosatning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, davlat byudjeti siyosati va markaziy bank faoliyati o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda makroiqtisodiy barqarorlikni baholash va tahlil qilishda World Bank hamda International Monetary Fund tomonidan e'lon qilinadigan hisobotlar muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda makroiqtisodiy barqarorlik inflyatsiya darajasining past va barqaror bo'lishi, fiskal intizomning ta'minlanishi, davlat qarzining nazorat ostida bo'lishi hamda tashqi savdo balansining muvozanatda saqlanishi orqali baholanadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham makroiqtisodiy barqarorlik masalasi muhim o'rin egallaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilinadigan inflyatsiya hisobotlari va pul-kredit siyosati sharhlari mamlakatda narxlar barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida yalpi ichki mahsulot, bandlik va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasini baholash mumkin.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy barqarorlik masalasi asosan umumiy nazariy yondashuvlar yoki alohida ko'rsatkichlar doirasida o'rganilgan. Xususan, O'zbekiston sharoitida fiskal va monetar siyosatning o'zaro ta'siri, shuningdek, ularning iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va bandlik ko'rsatkichlariga kompleks ta'siri yetarli darajada chuqur tahlil etilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot aynan ushbu yo'nalishda ilmiy izlanish olib borishni maqsad qiladi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini tizimli ravishda yoritishga qaratilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi





statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash va dinamik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi.


Tadqiqot jarayonida 2019–2025-yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi hamda investitsiyalar hajmi kabi ko‘rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida tanlab olindi.

Mazkur model orqali mustaqil o‘zgaruvchilarning (inflyatsiya, investitsiya, bandlik) iqtisodiy o‘shishga ta‘siri statistik jihatdan baholandi. Shuningdek, dinamik tahlil usuli yordamida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yillar kesimidagi o‘zgarish tendensiyalari o‘rganildi. Taqqoslash usuli orqali pandemiya davri (2020-yil) va undan keyingi tiklanish bosqichidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirildi.

Tadqiqot uchun ma‘lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, **Jahon Banki** hamda **Xalqaro valyuta jamg‘armasi** rasmiy statistik ma‘lumotlari va hisobotlaridan foydalanildi.

Mazkur metodologiya makroiqtisodiy barqarorlikni kompleks baholash, asosiy omillarni aniqlash hamda iqtisodiy siyosat samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy tahlil. Makroiqtisodiy barqarorlikni baholashda iqtisodiy o‘shish sur‘ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi hamda yalpi ichki mahsulot hajmi asosiy indikatorlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning umumiy holatini, ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanish darajasini hamda aholi farovonligi dinamikasini kompleks tarzda aks ettiradi. Shu sababli makroiqtisodiy barqarorlikni tahlil qilishda mazkur indikatorlarning o‘zaro bog‘liqligini tizimli yondashuv asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.





1-diagramma. O‘zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (2019–2025-yillar)

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilgan makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish mumkin. Avvalo, yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atlariga e’tibor qaratilsa, 2019-yilda iqtisodiy o‘shish 6,8 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Biroq 2020-yilda global pandemiya natijasida iqtisodiy faollikning pasayishi natijasida iqtisodiy o‘shish sur‘ati 1,6 foizgacha kamaygan. Ushbu jarayon nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo iqtisodiyotining ko‘plab mamlakatlarida kuzatilgan global iqtisodiy shok bilan izohlanadi.

Keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish jarayoni kuzatilgan. Xususan, 2021-yilda iqtisodiy o‘shish sur‘ati 8 foizga yetgan bo‘lib, bu iqtisodiy faoliyatning qayta tiklanishi va iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilganidan dalolat beradi. 2022–2024 yillarda ham iqtisodiy o‘shish nisbatan barqaror darajada saqlanib qolgan. Bu davrda iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari sifatida sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi hamda xizmatlar sektorining rivojlanishini ko‘rsatish mumkin. Inflyatsiya darajasi ham makroiqtisodiy barqarorlikni baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda inflyatsiya darajasi 15,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Inflyatsiya darajasining bosqichma-bosqich kamayib borishi mamlakatda olib borilayotgan monetar siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi. Xususan, inflyatsiyani jilovlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan pul massasini tartibga solish, foiz stavkalarini boshqarish hamda inflyatsion targetlash siyosati joriy etilgan.

Ishsizlik darajasi ham makroiqtisodiy barqarorlikni tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda ishsizlik darajasi 17 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatiladi. 2024-yilga kelib ishsizlik darajasi 8,9 foizgacha kamaygan. Bu jarayon mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Yalpi ichki mahsulot hajmining o‘shish dinamikasi ham iqtisodiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda mamlakat YaIM hajmi 67,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 114,9 milliard dollarga yetgan. Bu esa qisqa vaqt ichida mamlakat iqtisodiyotining sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. YaIM hajmining oshib borishi ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda investitsiya faolligining oshishi bilan izohlanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlatning iqtisodiy siyosati muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda fiskal va monetar siyosatning uyg‘unligi alohida ahamiyatga ega. Fiskal siyosat orqali davlat iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi investitsiya dasturlarini moliyalashtiradi hamda infratuzilmani





rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi. Monetar siyosat esa inflyatsiya darajasini nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning tashqi shoklarga nisbatan barqarorligi oshadi. Shu sababli sanoatni modernizatsiya qilish, xizmatlar sektorini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali natijalar berayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, global iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar va tashqi iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda makroiqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha muhim institutsional va iqtisodiy mexanizmlar shakllangan bo'lsa-da, ularning samaradorligi bir qator tizimli muammolar bilan cheklanib qolmoqda.

Birinchiidan, monetar siyosat doirasida inflyatsiyani nazorat qilish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, inflyatsion bosimning asosiy qismi taklif omillari bilan bog'liq ekani kuzatilmoqda. Ya'ni, ichki bozorda ishlab chiqarish hajmining yetarli emasligi, importga qaramlik va logistika xarajatlarining yuqoriligi narxlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa monetar instrumentlarning imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli inflyatsiyani faqat pul-kredit vositalari orqali emas, balki ishlab chiqarishni kengaytirish, ichki bozorni tovar bilan to'ldirish va raqobat muhitini kuchaytirish orqali ham tartibga solish zarur.

Ikkinchiidan, fiskal siyosat doirasida davlat xarajatlarining samaradorligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Davlat byudjeti mablag'larining katta qismi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilayotgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy o'sishga multiplikativ ta'siri har doim ham yuqori emas. Ayrim hollarda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi yetarli darajada asoslanmaydi. Shu bois byudjet xarajatlarini natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazish, ya'ni har bir sarflangan mablag'ning iqtisodiy natijasi aniq baholanadigan mexanizmni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchiidan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayoni yetarli darajada chuqurlashmagan. Hozirgi kunda ayrim tarmoqlarga yuqori darajada bog'liqlik saqlanib qolmoqda, bu esa tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan zaiflikni oshiradi. Xususan, eksport tarkibining cheklanganligi va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushining pastligi makroiqtisodiy barqarorlikka xavf tug'diruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sanoatni chuqur qayta ishlashga





yoʻnaltirish, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksportni diversifikatsiya qilish ustuvor vazifa boʻlib qolmoqda.

Toʻrtinchidan, yashirin iqtisodiyot ulushining mavjudligi soliq bazasining toʻliq shakllanishiga toʻsquinlik qilmoqda. Bu esa fiskal barqarorlikka salbiy taʼsir koʻrsatadi. Mazkur muammoni hal etish uchun soliq maʼmuriyatchiligini toʻliq raqamlashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish hamda soliq yukini maqbullashtirish orqali biznesni rasmiy sektorga jalb etish zarur.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi kompleks yechimlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- monetar va fiskal siyosatning yanada muvofiqlashtirilgan modelini joriy etish;
- ishlab chiqarish sektorini qoʻllab-quvvatlash orqali inflyatsiyaning taklif omillarini kamaytirish;
- davlat xarajatlarini natijadorlik asosida boshqarish tizimini joriy etish;
- yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish.

Natijada makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash mexanizmlarining samaradorligi oshib, iqtisodiy oʻsishning barqaror va sifat jihatdan yangi bosqichiga oʻtish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash boʻyicha muhim institutsional asoslar shakllangan boʻlsa-da, uning barqarorligini taʼminlashda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, inflyatsiyaning yuqori darajada taklif omillariga bogʻliqligi, davlat xarajatlarining yetarli darajada samaradorlikka yoʻnaltirilmagani hamda iqtisodiyotda diversifikatsiya darajasining pastligi makroiqtisodiy muvozanatni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon boʻlmoqda.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, iqtisodiy oʻsish surʼatlarining barqarorligi koʻp jihatdan ichki iqtisodiy siyosatning moslashuvchanligiga bogʻliq boʻlib, qisqa muddatli ijobiy natijalarga qaramasdan, uzoq muddatli barqarorlikni taʼminlash uchun tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish zarur. Ayniqsa, inflyatsiyani faqat monetar vositalar orqali emas, balki ishlab chiqarish hajmini oshirish va ichki bozorda raqobatni kuchaytirish orqali tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, fiskal siyosat samaradorligini oshirish maqsadida davlat byudjeti xarajatlarini natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimiga oʻtkazish, investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida tanlash va monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bu esa davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, iqtisodiy oʻsishga qoʻshimcha turtki beradi. Bundan tashqari, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport tarkibini takomillashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushini





qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va biznes muhitini yaxshilash orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash faqat alohida iqtisodiy choralar bilan emas, balki monetar, fiskal va tarkibiy siyosatlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilishi zarur. Mazkur yondashuv mamlakat iqtisodiyotining tashqi va ichki xatarlariga nisbatan barqarorligini oshirib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John Maynard Keynes. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
2. N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. – New York: Worth Publishers, 2018.
3. Paul Samuelson, William Nordhaus. *Economics*. – New York: McGraw-Hill Education, 2010.
4. Jahon banki. World Development Indicators Database. – <https://data.worldbank.org>
5. Xalqaro valyuta jamg'armasi. World Economic Outlook Database. – <https://www.imf.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi va inflyatsiya hisobotlari. – <https://cbu.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari statistikasi. – <https://stat.uz>
8. Osiyo taraqqiyot banki. Asian Development Outlook. – <https://adb.org>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy portali. O'zbekiston iqtisodiy islohotlari bo'yicha farmon va qarorlar. – <https://president.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy hisobotlar. – <https://imv.uz>

